

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta

maxsus ta'lim vazirligi

Samarqand davlat chet tillar instituti tarjimonlik fakulteti

**Koreys va o'zbek tillarida ot+so'z yasovchi modelidagi leksik
derevatlarning qiyosiy tahlili**

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti

IV kurs talabasi Sayfiddinovaning

bitiruv malakaviy

ishi

Ilmiy rahbar:

Nazarova Sh

Samarqand – 2015

MUNDARIJA

I KIRISH.....	
II ASOSIY QISM.....	
I BOB. SO'Z YASALISHIGA OID ASOSIY TUSHUNCHALAR.....	
1.1 Derevatologiya va uning shakllanishi	
1.2 So'z yasalihi va uning usullari.....	
1.3 So'z yasash modeli	
II BOB KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA OT+SO'Z YASOVCHI MO- DELLI SO'Z TURKUMLARI YASALISHI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	
2.1 Ot+so'z yasovchi modelli otlarning yasalihi (명사+ 완료어미 파생명사).....	
2.2 Ot+so'z yasovchi modelli sifatarning yasalihi (명사+ 완료어미 파생형용사).....	
2.3. Ot+so'z yasovchi modelli fe'llarning yasalihi (명사+ 완료어미 파생동사).....	
2.4. Ot+so'z yasovchi modelli ravishlarning yasalihi (명사+ 완료어미 파생부사).....	
III BOB OT+SO'Z YASOVCHI MODELIDAGI DERIVATLARNING SINTAK-TIK VAZIFALARI.....	

3.1 Ot+soʻz yasovchi modelidagi ot soʻz turkumli derivatlarning gap boʻlagi boʻlib kelishi.....

3.2 Ot+soʻz yasovchi modeli sifat soʻz turkumidagi leksik derevatlarning gap boʻlagi boʻlib kelishi.....

3.3 Ot+soʻz yasovchi modeli feʼl soʻz turkumidagi leksik derevatlarning gap boʻlagi boʻlib kelishi.....

3.4 Ot+soʻz yasovchi modeli sifat soʻz turkumidagi leksik derevatlarning gap boʻlagi boʻlib kelishi.....

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....

I. KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov: “Faqat bahs, munozara, tahlil mevasi bo’lgan xulosalargina bizga to’g’ri yo’l ko’rsatadi”, deb yozadilar. Mustaqillik sharofati bilan O’zbekiston va jahonning turli yetakchi davlatlari o’rtasida o’zaro hamdo’stlik aloqalari tobora rivojlanib bormoqda. Ular o’rtasida nafaqat iqtisodiy aloqalar balki ijtimoiy, siyosiy, ma’daniy aloqalar ham keng yo’lga qo’yilmoqda. Mana shunday xalqaro aloqalar rivojlanib borayotga bir paytda yoshlarning bilim saviyasi, ularning intellektual salohiyati ham shunga munosib darajada bo’lishi lozim.

“Biz shuni unutmasligimiz lozimki, biz XXI asrda, intellektual qadriyatlar ustivor bo’lgan asrda, globallashuv jarayonlari shiddatli tus olayotgan va jahon bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan asrda yashamoqdamiz.”

Intellektual qadriyatlar ustivor bo’lgan asrda ro’y berayotgan salmoqli o’zgarishlarga to’xtalar ekan, bunda davlatimiz rahbari mamlakatimiz yoshlari, xususan yosh mutaxassis kadrlarning barcha zamonaviy talablarga mos kelishi zarurligini, hozirgi davr intellektual sohasida yetuk, raqobatbardosh bo’lishlarini ta’minlash joizligini ta’kidlaydi.

Zero, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning maqsadi ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni zamon talablariga mos darajada yoshlar ongiga yetkazish, ta’lim sohasini o’tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to’la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak, ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir.

Mustaqil vatanimizda ilm-fanning rivojiga, yosh avlodning barkamol, etuk inson bo'lib etishishiga, ularning bilim darajasini oshirishga, ayniqsa, kelajak avlodni munosib voris etib tarbiyalashda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va boshqa o'nlab qaror va qonunlar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida ta'kidlanganidek, yosh avlodni tarbiyalashda ijtimoiy-gumanitar fanlar, shu jumladan, chet tillari juda muhim o'rin egallaydi. Chet tillarning yoshlar hayotidagi ahamiyatini oshirish uchun ushbu fanga ta'lim oluvchilarning, tinglovchilarning qiziqishini, tili o'rganilayotgan mamlakatning iqtisodi, siyosati, jo'g'rofiyasi, ijtimoiy hayotini chuqur o'zlashtirishni, shuningdek, xorijliklar bilan og'zaki hamda yozma nutqiy muloqotni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar, bu borada keng ko'lamda izlanishlar olib borilishini taqozo etadi.

Respublikamizning chet mamlakatlar bilan teng sherikchilik asosida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar kundan-kunga keng quloch yozayotganligi chet tillarni o'zlashtirishga bo'lgan zaruriyatni toboro orttirmoqda. Qayd etilgan aloqalar rishtalari bog'lanayotgan davlatlar jo'g'rofiyasi kun sayin kengaymoqda. Natijada "chet tili mutaxasislarni kasbga tayyorlash tizimida muhim tarkibiy qismlardan biri maqomini egalladi va oliy va o'rta maxsus o'quv yurti bitiruvchisining umumiy madaniyati, hech bo'lmasa, bitta chet tilini egallashini taqozo etadi". Ana shu ijtimoiy ehtiyojni qondirish maqsadida hukumatimiz tomonidan qator amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Quyidagilar shular jumlasidandir:

a) ta'lim muassasalarining barcha tiplarida chet tili o'quv predmetiga ajratilgan soat miqdori sezilarli tarzda ko'paytirildi;

b) maktabgacha ta'lim muassasalarida (MTM) chet tili o'qitish uchun ba'zi Oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchi kadrlar tayyorlanishi yo'lga qo'yildi;

v) chet tili o'qitiladigan maktabgacha ta'lim muassasalari (MTM) soni ko'paytirilmoqda;

g) xorijiy filologiya mutaxassisligiga yo'naltirilgan akademik litseylar tashkil etilmoqda;

d) chet tillarni o'qitishga xorijiy mamlakatlardan o'qituvchi-mutaxassislar jalb qilinmoqda;

e) o'quv dasturlar, dasliklar, o'quv qo'llanmalarning nashr etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda;

j) Respublika miqyosida hamda xorijda chet tili ta'limining dolzarb masalalariga bag'ishlangan seminar-kengash, ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etilmoqda;

z) turli tanlov, olimpiadalar o'tkazilishi keng yo'lga qo'yilmoqda;

i) tilshunoslik, ta'lim hamda o'qitish metodikasiga doir dissertatsion tadqiqotlar olib borilmoqda, ilmiy risolalar, maqolalar chop etilmoqda va hakoza. Tarixan til serqirra ijtimoiy hodisa bo'lib, u har bir kishi uchun, har bir mutaxassis uchun ma'naviy, madaniy jihatdan chuqur ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham til, til ta'limi, uni chuqurroq tadqiq etish, xususan, ona tilimizni chet tillari bilan qiyosiy o'rganish, ayniqsa, o'zbek tiliga davlat maqomi berilgandan so'ng ham mamlakatimiz filolog olimlari o'rtasida o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

Xalqlar madaniy, ma'naviy tarafdin bir-birini boyitishlari evaziga har jihatdan rivojlanish qaror topadi. Mustaqillik sharofati bilan o'zbek va koreys xalqlari o'rtasidagi yaqin munosabat yuzaga keldi. Xalqaro aloqalar, o'zaro kelishuvlar, bitimlar imzolana boshlandi. Xususan, O'zbekistonning nufuzli universitetlaridan biri Toshkent Sharqshunoslik universitetida >>>>> yil, SamDChTIda 2011-yilda koreys tili fakulteti ochildi. Koreys tilining

mamlakatimiz ta'lim muassasalarida o'qitilishi shu ikkala davlatning har sohada teng sherikchilik asosida rivoj topishiga, tillarni tillarga, dillarni dillarga bog'lashda asosiy omillardan biri deb hisoblash maqsadga muvofiqdir. Ta'lim muassasalari, xususan, oliy o'quv yurtlarining koreys tili ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari shu yo'nalish bo'yicha bakalavr darajasiga erishgandan so'ng xalq xo'jaligining turli sohalarida mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan ravnaq topishi yo'lida o'z hissalarini qo'shib kelishmoqda. Oliy o'quv yurtlarida koreys tilining o'rgatila boshlashi bilan bu ikki davlat o'rtasidagi do'stona munosabat yanada mustahkamlandi. Koreys tili va ona tilimizning bir til oilasiga mansubligi, ayniqsa, bu tilni birmuncha osonroq o'rganishimiz uchun bizga yordam bermoqda. Duyodagi tillarning ko'pchiligi tarixan bir umumiy ildizga ega bo'lib, ular fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarining yaqinligi, o'xshashligiga ko'ra muayyan guruhlarga ajratiladi. Tarixan bir umumiy ildizga ega tillar qarindosh tillar hisoblanadi hamda ular til oilalarini tashkil qiladi. Koreys tili hamda o'zbek tili geneologik tasnifga ko'ra qarindosh til hisoblanadi, chunki ularning har ikkalasi ham Oltoy tillar oilasiga mansubdir. O'tgan asrning 20 yillariga kelib rus olimi E.D. Polivanov turkiy tillar bilan koreys va yapon tillarining qarindosh ekanligi g'oyasini ko'tarib chiqdi va bunga ko'ra bu til oilasining "Oltoy tillar oilasi" deb nomlanishi zarurligini ham uqtirdi. "Turk, yapon va koreys tillaridagi parallellar (mosliklar)" deb nomlangan turkum maqolalarida muallif o'z g'oyasini bu tillardagi fonetik, grammatik va leksik mosliklarni tahlil qilib berish bilan isbotlagan edi. Oltoy tillar oilasining beshta tarmog'i mavjud bo'lib, bular: turkiy tillar guruhi, mo'g'ul tillari guruhi, tungus-manjur tillari guruhi, koreys tili va yapon tili.

Oltoy tillari tarmoqlarga ajralganidan so'nggi ming yilliklarda Turkistonda ham, Koreya yarimorolida ham tabiiy va ayniqsa, ijtimoiy tafovutlar etarli miqdorda bo'ldi. Shu sababli ham keyingi yillarda turli qardosh va qardosh bo'lmagan til sistemalarini bir – biri bilan taqqoslab o'rganish juda keng ajv olmoqda. Tillar o'rtasidagi tafovutlarning mavjudligiga qaramasdan, ularni taqqoslab, qiyoslab o'rgansak, bu

ikki til grammatikasidagi o'xshashliklarni inobatga olgan holda tadqiq qilsak tilni o'rganishda bir qancha yutuqlarga erishgan bo'lamiz.

O'zbek va koreys tillarining boy xazinasini hisoblanmish grammatik birliklar va mana shu grammatik birliklarni tashkil qiluvchi o'zak va morfemalarni o'rganish, bu xalqlar tilidagi o'zaro yaqinlikni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hamda ularni tobora chuqurroq o'rganishda bizga asqotadi. Bu bevosita o'zbek va koreys tillaridagi so'zlarning bir-biri bilan qo'shimchalar orqali bog'lanishiga ham dahldordir. Chunki, har bir tilda so'zlar asosan qo'shimchalar orqali bog'lanadi. So'zlarning bir-biri bilan grammatik bog'lanishiga xizmat qiluvchi kelishik qo'shimchalarini tadqiq qilish esa koreys tili grammatikasini o'rganishda, bu tilda yaratilayotgan asarlarni to'g'ri tarjima qilishda, koreys tilida mavjud bo'lgan badiiy va ilmiy asarlardan bahramand bo'lishda bizga juda katta xizmat qiladi.

Mavzuning obyekt predmeti. Xorijiy til ta'limini o'zlashtirishda tilning amaliy hamda nazariy grammatikasi dars mashg'ulotlarini qamrab oladigan barcha o'quv materiallari, ma'ruzalar matnlari jumladan, koreys tili grammatik hodisalarini o'zlashtirishdagi materiallar, koreys tilidagi izohli va tarjima lug'atlardan to'plangan dalillar mavzuning obyekt predmeti sifatida olindi.

Mavzuning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishi uchun o'zbek va koreys tillarida ot+so'z yasovchi modellarining derevatologik komponentlari asos qilib olindi. Bitiruv malakaviy ishi mavzusini to'laligicha ochib berish uchun koreys tiliga doir ilmiy adabiyotlar, mavzuga doir ilmiy maqolalar, ma'ruzalar va ularda o'z aksini topgan nazariy, amaliy ahamiyatga ega bo'lgan mulohazalarni umumlashtirish, ularga munosabat bildirish hamda mavzu mohiyatini o'zbek va koreys tilidagi faktlar asosida tahlil qilish maqsad qilib qo'yildi.

II.ASOSIY QISM

I BOB. SO'Z YASALISHIGA OID ASOSIY TUSHUNCHALAR

Dunyoda so'z yasalihi xususiyatiga ega bo'lmagan hech bir til yo'q bo'lsa kerak. Barcha tillarning o'ziga xos grammatikasi mavjuddir. Bu grammatikalarni biz so'z yasovchilarsiz tasavvur qila olmaymiz. Hech bir tilda so'zlar faqatgina tub so'zlardangina iborat bo'la olmaydi. To'g'ri, biz so'zlarni ma'lum darajada ohang orqali bog'lashimiz mumkin lekin, jumalarni hosil qilishda to'ligicha ohangdan foydalana olmaymiz. Shuning uchun ham har bir til grammatikasida qo'shimchalar alohida o'rin tutadi. Biz buni nafaqat o'zbek tili misolida balki koreys va boshqa tillar misolida ham olib qarashimiz mumkin.

So'z yasaliishiga oid asosiy tushunchalarni to'la va to'g'ri belgilash, ulardan har birining mohiyatini to'g'ri aniqlash so'z yasalihi tizimi bilan bog'liq barcha hodisalarning mohiyatini to'laligicha to'g'ri yoritish imkonini beradi. Bu tushunchalardan har birini aniq belgilash va mohiyatini to'g'ri yoritish boshqasining ham shunday muvaffaqiyatli hal etilishiga yo'l ochadi. Shuning uchun ham ularni ma'lum tartibda, shu maqsadga imkon beradigan tartib asosida bayon etishga harakat qilamiz.

1.1 Derevatologiya va uning shakllanishi

Derevatologiya tilshunoslik fanining alohida yo'nalishi sifatida bugungi kunda o'zining mustaqil maqomiga ega. U derevatsiya muammolarini o'rganishga xoslanganligi bois, etimotologik nuqta'i nazardan mazkur tushuncha bilan uzviy bog'lanadi derevatsiya tushunchasi aslida, lotin tilidagi *derevatio* (*ayrilish, ajralish, tarmoqlanish*) so'zidan olingan bo'lib, u tilshunoslikda yasaliish, shakllanish ma'nolarida qo'llanilmoqda.

Derevatologiya termini 1981-yilda Perm universitetida (derevatologiyaning nazariy muammolari) mavzusida o'tkazilgan nufuzli ilmiy konferensiyada qabul qilindi va hayotga yo'llanma oldi. Ammo mazkur konferensiyaning asosiy maqsadi derevatsion muammolarning o'rganilishi tarixiy ildizlarini belgilab berish emas edi. Bu anjumanning amaliy ahamiyati shundaki, unda derevatologiya tushunchasi nafaqat ilmiy iste'molga kiritildi, balki unga tilshunoslikning alohida bir yo'nalishi sifatida hayotga yo'llanma ham berildi.

Sunisi bilan ravshanki, derevatsiya tushunchasi qariyb hozirga qadar so'z yasalishi tushunchasining mantiqiy sinonimi sifatida qo'llanilib kelindi. Hozirgi tilshunoslikda derevatsiya nazariyasidan so'z birikmalari, gap, murakkab sintaktik qurilma va matn kabi nutq birliklarining shakllanishi muammolarini o'rganishda keng foydalanilmoqda. Bugungi kunda derevatologik tadqiqotlarda iste'molga kiritilishi lozim bo'lgan terminlarni va derevatologiya shug'ullanishi kerak bo'lgan vazifalarni aniq belgilagan deyish mumkin.

Derevatologiyaning shakllanishi va tarixiy ildizlari haqida so'z yuritarkanmiz Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida berilgan yasama so'zlarga ham nazar tashlab o'tish lozim, deb o'ylaymiz. Asarda tub hamda yasama so'zlar xususida ma'lumot berilganda, olim quyidagilarni qayd etadi. Otlar ikki turlidir: yasama ot va tub ot. Fe'llardan yasalgan otlar fe'l oxiriga o'n ikki harfdan birini qo'yish bilan yasaladi.

Qilich, oq kabi otlar tub otlardir. Bu xil otlar boshqa so'zlardan kelib chiqmagan. Yasama otlar boshqa so'zlardan kelib chiqadi.

Mahmud Koshg'ariy otdan ot yasalish, fe'llarning yasalishi haqida ham atroflicha ma'lumot beradi. Eng muhimi, uning so'z yasalishi masalasiga jiddiy e'tibor qaratgasnligidir. Bu esa bugungi derevatologiyaning tarixiy ildizlarini turkey tillar materialida ham kuzatish mumkinligini ko'rsatadi.

Shuni ham aytish lozimki, leksik derevatsiyani ko'pchilik tilshunoslar so'z yasalishi hodisasining muqobili deb biladilar. To'g'ri, leksik derevatsiya so'z yasalishini taqozo etadi. Ularning asosiy tamoyillari mushtarakdir. Masalan, **so'z yasalishi asosi** va **yasovchi formant** tushunchalari derevatsion nuqta'i nazardan ham ahamiyat kasb etadi. Bunda faqat terminlar o'rtasida farq kuzatiladi. Boshqacha aytganda, leksik derevatsiyada *so'z yasalishining asosi* o'rniga **operand**, **yasovchi** formant o'rniga esa **operator** terminlaridan foydalaniladi. Biroq leksik derevatsiya, so'z yasalishidan farqli ravishda hosila struktura (derevat) sathida ro'y beruvchi morfemalarning ichki munosabatini ham tekshiradi. Masalan, **ishchi** so'zini olaylik. Mazkur so'z, shubhasiz, yasama so'z qolipidagi hosilani taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida, uning leksik derevatsiya mahsuli ekanligidan dalolat beradi. Agar mazkur hosila sathida qo'llanilayotgan morfemalarning o'zaro munosabatga kirishuviga e'tibor qaratsak, quyidagilarni kuzatamiz: **ish**-obyekt, **-chi**-ijrochi (keng ma'noda). Biroq obyekt bilan ijrochi hech qachon to'g'ridan-to'g'ri bog'lana olmaydi. Shu bois ular harakat ma'nosi orqali bir-biri bilan munosabat tashkil etmoqda. Demak, ayni paytda obyekt+harakat+ijrochi o'rtasidagi bog'lanishni ko'ramiz. Lekin qizig'i shundaki, bu o'rinda til birliklarining gorezantal chiziqda ro'y berayotgan sintaktik bog'lanishi shakllanmoqda. Demak, yasama so'z sathida sintaktik munosabat vujudga kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, so'z sintaksisi tushunchasini tadqiqotlqr kun tartibiga qo'yadi. Bu jihatdan, albatta, leksik va sintaktik derevatsiya tushunchalari bir-biriga maksimal darajada yaqinlashadi. Ammo bu bilan leksik va sintaktik derevatsiya tushunchalarini qorishtirib yuborib ham bo'lmaydi. Chunki yasama so'zlar shakllanishi bilan shug'ullanuvchi leksik derevatsiya dinamik xarakter kasb eta olmaydi, u statik belgilariga ko'ra ajralib turadi. Sintaktik derevatsiya esa mudom dinamik xarakterlidir.

Agar bu hodisalarni ham semantic derevatsiya nazariyasi bilan bog'laydigan bo'lsak,(bunday bo'lishi, albatta, tabiiy) u holda derevatsiyaning mazkur turi

tekshiruv obyektlari soni yanada oshadi. Umuman olganda, semantic derevatsiya nazariyasi nimalar bilan tugallanishi lozimligi va uning tekshiruv obyektlari masalasi hali to'liq hal etilganicha yo'q. Nazarimizda, semantik derevatsiya nazariyasi hodisasi ma'no majoziyligi bilan ham uzviy bog'lanadi va shu bois uning asosiy tekshiruv obyektlari jumlasiga frazeologik ibora hamda parafrazalar tadqiqi ham kiritilmog'i lozim. Mazkur obyektlarning har ikkalasida ham denotat-signifikat o'rtasidagi bog'lanish semantik derevatsiya tamoyillariga bo'ysunadi. Albatta, denotat-signifikat munosabatining bu xildagi ko'rinishi metafora, metonimiya hodisalarida ham qayd etiladi. Shu bois mazkur hodisalar ham semantik derevatsiya nazariyasining tekshiruv obyektlari hisoblanishi tabiiydir. Bundan tashqari, so'z yasallishining affiktsiya hodisasi leksik derevatsiya, konversiya hodisasi esa semantic derevatsiya doirasida ro'y berishi alohida tekshiruv obyekti bo'la oladi. O'ylaymizki, hali qilinajak tadqiqot ishlarida semantik derevatsiya va uning tekshiruv obyektlari oydinlashtiriladi.

Shunisi xarakterliki, biz yuqorida fikr bildirgan leksik, semantik va sintaktik derevatsiyalarning har birining ilmiy tadqiqiga bir xil *operand*, *operator* va *derevat* terminlari qo'llaniladi. Operand –bu derevatsiya asoslanadigan faktik til materiali demakdir. Masalan, **tilshunos** yasama so'zining leksik derevatsiyasi operandi **til** so'zi hisoblanadi. Ayni paytda operand tarkibsiz bo'lgani uchun faqat soda operand haqida so'z yuritish mumkin. **G'o'zapoya** yasama so'zining leksik derevatsiyasi esa **g'o'za+poya** tarzidagi tarkibli operandga asoslanadi. Derevatologiyada unday operand *murakkab operand* deb ataladi.

Berilgan misollarning birinchisida leksik derevatsiyani shakllantiruvchi vosita sifatida **-shunos** morfemasi, ikkinchisida esa yashirin holda kelayotgan **-ning** (g'o'zaning) morfemasi faollik ko'rsatmoqda. Mazkur morfologik vositalar derevatsiya operatori vazifasini bajaradi.

Derevatsiyaning natijasi (so'ngi mahsul) hosilani taqozo etadi. Bu o'rinda derevatologiyada **derevat** terminidan foydalaniladi. Masalan, *Sobir institutga kirdi*. Gapi yaxlitligicha derevat, ya'ni hosila sanaladi. Ayni paytda *Sobir, institute, kirdi* so'zlari derevatsiya operandlarini taqozo etmoqda, derevatsiya operatori esa **-ga** jo'nalish kelishigi qo'shimchasi bilan ifodalanmoqda.

Ko'rinib turibdiki, bir paytning o'zida derevatsiyaning barcha turlarini tadqiq qilish va ular haqida ma'lumot berish qiyin, albatta. Shu bois tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, har safar mazkur turlarning biri xususida so'z yuritish mumkin.

1.2 So'z yasalishi va uning usullari

“So'z yasalishi”, tilshunoslikning alohida sohasi sifatida, so'z yasash va u bilan bog'liq birliklar, hodisalar haqidagi, umuman aytganda, so'z yasalishi tizimi haqidagi ta'limotdir.

“So'z yasash” termini til birliklari yordamida ma'lum usul bilan so'z hosil qilishni bildirar ekan, birinchi galda ana shu masalaga - so'z yasash usuli masalasiga to'xtashga to'g'ri keladi.

“So'z yasash usuli” tushunchasi so'z yasalishi bo'limining asosiy tushunchalaridan biri, desak xato bo'lmaydi. Uning mohiyatini to'g'ri anglamasdan, avvalo, so'z yasalishining qanday usuli yoki usullari borligini aniq belgilab bo'lmaydi.

So'z yasash usuli bo'yicha juda ko'p ishlar qilindi, ko'p gaplar aytili. Biroq o'zbek tilshunosligida bu hodisaning mohiyati shu vaqtga qadar aniq belgilangani bu masalada bir fikrga kelishgani yo'q. natijada so'z yasalishiga oid juda ko'p hodisalarning mohiyati to'g'ri yoritilmayotganligidan tashqari, “so'z yasalishi”

bahsida bu tizimga aloqasi bo'lmagan narsalar o'rin olib kelyapti. Bu ham yasama so'z bilan bog'liq masalalarni to'g'ri hal etishga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Demak so'z yasash usuli masalasida to'g'ri va aniq bir xulosaga kelish so'z yasalishiga oid hodisalarni aniq belgilab olishga, ularning mohiyatini to'g'ri yoritishga yo'l ochadi. Bunda o'zga tillarga oid qoidalar ta'riflar asosida emas, bevosita o'zbek tilining o'z materiallari asosida ish ko'rish talab etiladi.

Tub so'zlar birorta usul yordamida yasalmaydigan so'zlardir. Bunday so'zlar tarkibiy jihatdan asos va so'z yasovchi qo'shimchalarga bo'linmaydi, lekin ular tarkibida shakl yasovchi qo'shimchalar qatnashishi mumkin: gul, kitoblar, daftarni, uycha, qalamim kabi.

Yasama so'z – lisoniy birlik, leksema. So'z yasalish asosi va so'z yasovchilarning tahlilida ko'rdikki, so'z yasovchi so'z yasalishiga asos bo'luvchi leksemaning muayyan bir ma'nosi asosida ungan yangi so'z hosil qiladi. Yasama so'zning ma'nosi so'z yasalish asosining ana shu muayyan ma'nosi bilan so'z yasovchilarning ma'nosi zaminida yuzaga keladi. Shuning uchun ham yasama so'zning ma'nosini uning tarkibiy qismlari ma'nosi bilan asoslash mumkin bo'ladi. Lekin bu holni yasama so'zning ma'nosi uning tarkibiy qismlari ma'nosiga teng deb tushunmaslik kerak. Yasama so'zning ma'nosi so'z yasalish asosi ma'nosi bilan so'z yasovchining ma'nosi sentizidan yuzaga keladi. Quyida berilgan usullardan biri yordamida hosil qilinadigan yangi so'zlardir: *guldon, ra'nogul, uyma-uy*.

Turli usullar yordamida so'z hosil qilinishi so'z yasalishi deb ataladi. O'zbek tilida so'zlar asosan besh xil usul bilan yasaladi. Bu usullar yordamida ot, sifat fe'l, ravish turkumiga oid so'zlar yasaladi. Olmosh, son va yordamchi so'zlar yasalmaydi.

1. Soʻz yasovchi qoʻshimchalar bilan (affiksatsiya yoki morfologik usul): *ishchi, aqlli, ishla, yashirin*. Bitta asosdan yasalgan soʻzlar asosdosh soʻzlar deyiladi: *suvli, suvsiz, suvdon, suvchi*.

2. Soʻzlarni qoʻshib, juftlab soʻz yasashda (kompozitsiya yoki sintaktik usul) qoʻshma va juft soʻzlar yasaladi: *qora+mol=qoramol, koʻz+oynak=koʻzoynak, idish-tovoq, apil-tapil, unda-bunda*. Birdan ortiq soʻzning birikishidan yasalgan soʻzlar **qoʻshma soʻzlar** deyiladi: choyqurti, gultojxoʻroz, sotib oldi, himoya qildi, bir oz, rahmdil, Oʻrta Osiyo, Oliy Majlis. Ikkita soʻzning juftlanishidan yasalgan soʻzlar juft soʻzlar deyiladi:

Birin-ketin, omon-eson, jiz-biz (ovqat maʼnosida). Juft soʻzlarning barchasi ham yasama hisoblanmaydi, ikkita soʻz juftlangandan keyin yangi maʼno ifodalansagina juft soʻz yasalgan boʻladi: chol-kampir, aka-uka, katta-kichik kabi soʻzlar yasama emas, bu soʻzlarda yoki maʼno umumlashgan boʻladi, yoki maʼno kuchaytiriladi.

3. **Qisqartma usulda** soʻzlar turli koʻrinishda qisqartirilib qoʻshish yoʻli bilan yasaladi. Bular qisqartma soʻzlar (yoki abbreviaturalar) deyiladi. Qisqartirib soʻz yasash faqat otlarda uchraydi: electron hisoblash mashinasi –EHM, Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi –MDH, ijroiya qoʻmita –ijroqoʻm,

4. **Bir turkumdan boshqa turkumga soʻz koʻchishi yordamida** soʻz yasalishi (semantik usul): sifat va feʼl otga, son ravishga oʻtadi: oʻgʻil bola (oʻgʻil-sifat), oʻgʻli keldi (oʻtga otgan). U soat birga (son) keldi. Akasi bilan birga (ravish) keldi. Oʻquv, yozuv, qurilish (feʼl otga oʻtgan). Boshqa turkumga koʻchgan soʻzning maʼnosi va gapdagi vazifasi ham oʻzgaradi.

5. **Soʻzlari takrorlash yordamida soʻz yasalishi**. Bunda soʻzlar takrorlanib yangi soʻzlar yasaladi: paqpaq (oʻyin), tur-tur (turish), bip-bip (avtobus), pat-pat (mototsikl), xola-xola (oʻyin), yoʻl-yoʻl (rang), es-es (zoʻrgʻa). Takroriy soʻzlarning

hammasi ham yasama emas, bunda ham yangi ma'no yasalsagina, yasama so'z hisoblanadi: tez-tez, kata-katta kabi takroriy so'zlar yasama emas, bunda ma'no kuchaytirilgan, xolos.

1.3 So'z yasash modeli

Bu o'rinda "so'z yasash modeli" masalasiga qisqacha to'xtalib o'tishni lozim ko'rdik. Chunki yasama so'zni nutq birligi deb talqin etish xuddi shu modelni so'z yasalishiga tadbqiq etish va uni qanday tushunish bilan bog'liq ekani ko'rinib turibdi. (qolaversa, yasama so'zni leksema deb hisoblash so'z yasalishi modellar asosida o'rganilmaganligining oqibati, deb tushunuvchilar ham yo'q emas).

Lekin H. Ne'matov va R.Rasulovning mazkur ishida so'z yasash qolipi va yasama so'z haqidagi fikrlarga birma-bir to'xtashni lozim topmaymiz. Chunki bunga ehtiyoj ko'rinmaydi. Faqatgina ikki narsani qayd etib, shularga o'z munosabatimizni bildirish bilan cheklanamiz. Bularning biri – so'z yasalishini modellar asosida o'rganish, ikkinchisi – yasama so'zning nutq birligi yoki til birligi ekanini ham ana shu "model"ga bog'lab hal etish masalasi.

Avvalo, biron bir masalaning, hodisaning tahlili uchun qandaydir yangicha yo'l, usul va shu kabilar tavsiya etilar ekan, birinchi navbatda, uning afzalligi, shu asosda ish tutish kerakligi, shartligi asoslanishi kerak bo'ladi yoki ishning o'zida ana shu narsa o'z ifodasini topishi zarur bo'ladi. Bunda H. Ne'matovlarning ishida esa so'z yasalish tizimini modellar asosida o'rganishning afzalligi va shu yo'l bilan ish olib boorish lozim va shartligi o'z aksini topmagan.

Ma'lumki, o'zbek tili so'z yasalishi haqida fikr yuritilgan ishlarda so'z yasalishining modeli mavjudligi qayd etilgan. Lekin ularning birortasida ham

soʻz yasashiga oid hodisalar tushunchalar va ularning mohiyati “model” asosida yoritilmagan va bunga ehtioyoj boʻlmagan.

Lisoniy va nutqiy birliklar haqida fikr yuritilgan baʼzi ishlarda til birliklari (fonema, leksema, morfema) qatoriga “qolip” (“model”, “konstruktsiya”) ham kiritiladi. Biroq fonema, morfema, leksema soʻzlari muayyan til birliklarining aniq atamasi boʻlgani holda (tushunchani aniq ifodalagani holda) “qolip” (“model”, “konstruktsiya”) soʻzi biron bir lisoniy hodisani (birlikni) aniq ifodalay olmaydi. Shuning uchun ham “qolip”ga berilgan xato, soʻz yasash qolipiga berilgan taʼrif hodisaning mohiyatini soʻz yasashi va yasama soʻzning mohiyati toʻgʻri aks ettira olmaydi.

Masalan, H. Neʼmatov, R. Rasulovning qayd etilga ishidagi quyidagi taʼrifni olaylik: „...qolip... til birliklarining oʻzaro birikish tizimi va bu birikishning nutqiy hosilasining mohiyati sifatida tushuniladi. Bu qismlar tenglamalar kabi (=) belgisi bilan ajratiladi. Masalan, {(ot)+(-chi)=(ot anglatgan narsa predmet bilan shugʻullanuvchi, aloqador shaxs atamasi)}”

Birinchidan lisoniy qolip yoki model deganda, bizningcha yuqorida keltirilgan qolipning birinchi qismi (ot+chi) tushunilishi kerak. Ikkinchi qism esa qolipning maxsuli. Ikkinchidan, qolipning “ot +chi” deb koʻrsatilayotgan birinchi qismi, umuman, ot bilan shaxs oti yasovchi qoʻshimchaning birikuvini koʻrsatadi, xolos. Vaholanki, har qanday soʻz yasovchi umuman u yoki bu turkumga oid soʻzdan emas balki shu turkumning maʼlum bir semantik guruhiga oid soʻzlardan soʻz yasaladi. Masalan, ishchi, boʻzchi, xizmatchi v.h.k. Bizning bu bitiruv malakaviy ishimizning asosiy tadqiqot obyekti oʻzbek va koreys tillarida ot+soʻz yasovchi modelidagi derivatlarning qiyosiy tahlili ekan keyingi boblarda bu masalalarga batafsil yondashamiz.

II BOB KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA OT+SO'Z YASOVCHI MODELLI SO'Z TURKUMLARI YASALISHI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

2.1 Ot+so'z yasovchi modeli otlarning yasalishi (*명사+완료어미 파생명사*)

O'zbek tilida ot so'z turkumining ma'no jihatdan ikki turi mavjud: atoqli otlar hamda turdosh otlardir.

Ayrim shaxs yoki predmetga atab qo'yilgan otlar *atoqli otlar* deyiladi. Ularning atab qo'yilgan nomlari aynan turdosh otlardan bo'lishi ham mumkin shu jihatdan ham ularda yasalish xususiyati bo'lmay, bu hodisa turdosh otlarga xos xususiyatdir.

Bir turdagi shaxs, narsa, o'rin-joy, faoliyat-jarayonning umumiy nomini bildirgan otlar turdosh otlar deb ataladi: shahar, odam, maktab, to'y

Turdosh otlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1) **Shaxs otlari** shaxslarning yoshiga yashash joyiga mansab unvoniga kasb-koriga ijtimoiy holatiga, qarindoshlik darajasiga, nasl-nasabiga ko'ra nomlab keladigan otlardir: ota, ona, o'g'il, shahzoda, professor, kampir, bola, agronom, rais. Bu otlar kim? so'rog'iga javob bo'ladi.

Ot yasovchi qo'shimchalar o'zak bilan kirikkan holda quyidagi ma'nolarni bildiruvchi otlar yasaydi. Ular

Shaxs oti yasovchilari

-chi ot yasovchi qo'shimcha biror-bir faoliyat-jarayon bilan shug'ullanuvchi kishiga nisbatan ishlatiladi: *aravachi, suvchi, gulchi, traktorchi, ishchi, xizmatchi, yordamchi, yo'lchi, to'ychi, xabarchi*

M: *Pochtachi* ketishi bilan oqsoqlanib qo'shni kampir kirib keladi.

Bu yerda ot+-chi qo'shimchasi pochta ishlari bilan mashg'ul shaxsga nisbatan ishlatilyapti.

-dosh qo'shimchasi teng munosabatli shaxsga nisbatan ishlatiladi: *partadosh, sinfdosh, sirdosh, yurtdosh, qishloqdosh*

M: *Sinfdoshim* bilan birga maktabga boraman.

*Suhbatdosh*im bama'ni kishi ekan. O'zbek tilida -dosh qo'shimchasiga **ham-**old qo'shimchasi sinonimlik xususiyatiga ega. M: *hamsuhbat*

-kash Bu qo'shimcha ma'lum bir ish bilan shug'ullanuvchi shaxslarga nisbatan qo'llaniladi: *suratkash, chizmakash, aravakash*

M: Adol opamning o'g'li Badal *aravakash*ingizning o'zginasi.

-dor qo'shimchasi biror-bir mansab yoki predmetga ega shaxsni anglatadi: *hukmdor, chorvador, mulkdor, amaldor*

M: Qo'ng'irotda Boysaridek boy *chorvador* yo'q.

Misr ikki hukmdorga ega edi.

-bon shaxs mansabini ko'rsatuvchi qo'shimcha: *darvozabon, bog'bon, saroybon, xazinabon*.

M: *Darvoza**bon*** eshikni ochdi va kanizaklar kirib kelishdi.

-boz qo'shimchasi biror bir ish-harakatni ustalik bilan bajaradigan yoki shunga ruju qo'ygan shaxsga nisbatan ishlatiladi: *Dorboz, masxaraboz, xotinboz, maishatboz, ulfatboz, jo'raboz*

M: *Masxara**boz*** kulguli harakatlari bilan hammaga zavq ulashdi.

-paz asosan, ovqat pishiruvchi shaxsga nisbatan ishlatiladi: *oshpaz, mantipaz, kabobpaz, somsapaz*.

M: Tangem saroyning bosh *osh**paz***i etib tayinlandi.

-xon bu qo'shimcha biror bir gazeta yoki kitobni o'qiydigan shaxsga nisbatan ishlatiladi: *kitobxon, gazetxon*

Institutimizda "eng yaxshi *kitob**xon***" ko'rik tanlovi o'tkazildi.

-shunos biror bir soha ustida ilmiy ish olib boruvchi shaxsga nisbatan ishlatiladi: *dorishunos tilshunos, tabiatshunos, manbashunos, huquqshunos, elshunos, tuproqshunos, o'lkashunos*.

M: Qadimgi hind *tilshunosi* Paninining umumiy tilshunoslik sohasida xizmati katta.

-parast bu qo'shimcha salbiy ma'no anglatib, biror bir ishga ruju qo'ygan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. *Amalparast, oyparast, o'yparast, xayolparast, mansabparast*.

M: U *amalparast* edi, shuning uchun xalq orasida hurmat qozona olmadi.

-furush biror nima sotadigan kishiga nisbatan qo'llaniladi: *chitfurush, kiyimfurush, pista furush, do'ppifurush, tilla furush, chakkifurush*

Chitfurush o'z savdosi bilan band edi.

-vachcha ushbu qo'shimcha qarindoshlikni ifodalovchi otlarga qo'shilib, qarindoshlik darajasini yasashga xizmat qiladi: *xolavachcha, tog'avachcha, amnavachcha, amakivachcha, bo'lavachcha*.

Amakivachcham maktabda o'qituvchi bo'lib ishlaydi.

-soz: ustalarga nisbatan ishlatiladi. *Soatsoz, mashinasoz*

Endi mashinani *mashinasoz*ga olib borish kerak ekan-da.

Koreys tilida shaxs oti yasovchilari

Quyidagi shaxs oti yasovchi qo'shimchalar o'zbek tilidagi yuqorida ta'kidlab o'tilgan qo'shimchalar bilan mufofiqlik xususiyatiga ega. Demak, o'zbek va koreys tillarida ot+so'z yasovchi modeli shaxs oti derivatlari bor

ekanligi o'z aksini topdi. Quyida berilgan shaxs oti yasovchi qo'shimchalari biror-bir faoliyat-jarayon bilan shug'ullanuvchi kishilarga nisbatan ishlatiladi.

-자: 기술자-quruvchi, 학자-olim, 여행자-sayohatchi

예: 세종대왕은 한글을 만든 ~~학자~~입니다.

Qirol Sejon koreys alifbosini yaratgan *olim*dir.

-사: 요리사-oshpaz, 미용사-sartarosh, 교사-professor, 이발사-sartarosh.

예: 제 직업은 요리사입니다.

Mening kasbim *oshpaz*.

-생: 학생-talaba, 수습생-amaliyotchi.

예: 우리 대학교에 ~~학생~~들 아주 많아요.

Bizning institutimizda *talabalar* juda ko'p.

-배: 폭력배-qaroqchi

예: 배에 ~~폭력배~~들이 습격하다.

Kemaga *qaroqchilar* hujum qildi.

-가: 평론가-tanqidchi, 서설가-romannavis

예: 압둘라 카디리는 우즈베크인들에게 유명한 ~~서설가~~입니다.

Abdulla Qodiriy o'zbeklarning mashhur *romannavis*idir.

-부: 대장부-qahramon, jasur yigit.

예: 알포미시는 우즈베크 선민의 ~~대장부~~입니다.

Afrosiyob o'zbek xalqining jasur *qahramoni*.

-인: 수신인-xat oluvchi, 시인-shoir, 미인-go'zal ayol, xonim, 보증인-kafil.

예: XX 세기 한국 문학의 유명한 시인은 김 소 월입니다.

XX asr koreys adabiyotining mashhur *shoiri* Kim So Voldir

-원: 근무원-ishchi, 회사원-firma xodimi, 송신원 -reportyor

예: 우리 아버지는 회사원입니다.

Otam *firma xodimi*.

-꾼: 나무꾼-o'tinchi, 낚시꾼-baliqchi, ovchi, 일꾼-ishchi, 장사꾼-savdogar.

예: 나무꾼은 천사의 날개를 숨겼다.

O'tinchi farishtaning qanotchalarini yashirib qo'yibdi.

-쟁이: 겁쟁이-qo'rqqoq, 욕심쟁이-ko'z bo'yamachi, tamagir, 빚쟁이-kreditchi, qarz beruvchi

예: 은행은 특별한 빚쟁이입니다.

Bank maxsus *qarz beruvchi* subyektdir.

-수: 교수-professor, olim, 조교수-yordamchi professor.

예: 우리 대학교에서 자격 있는 교수님들이 가르쳐드립니다.

Bizning institutimizda malakali *professorlar* saboq berishadi.

2) **Narsa-buyum otlari** jonli va jonsiz narsalarning nomini bildiradigan otlardir.

Olma, danak, qalam, piyola, pichoq, chuchvara v.h.k. Bu otlar *nima?*

so'rog'iga javob bo'ladi.

Narsa-buyum otlari yasovchi qo'shimchalar

-don biror kichik predmetlarni solib qo'yish uchun mo'ljallangan idishchaga nisbatan ishlatiladi: *Guldon, kuldon, qalamdon*.

M: Rangli qalamlarim *qalamdon*imning ichida.

-noma bu qo'shimcha hujjat yoki ayrim rasmiy qog'ozlarni yasalishiga xizmat qiladi:

M: *Talabnoma, muhabbatnoma, xabarnoma, ishqnoma, shartnoma*.

To'yga *taklifnomal*arni tarqating.

-poya qo'shimchasi asosan, o'simliklarga nisbatan ishlatiladi.

M: *Bedapoya, o'tpoya, pillapoya*

G'o'zapoya sovuqdan qovjiray boshlamoqda.

Koreys tilida narsa oti yasovchilari

-자: 그림자-soya, ko'lanka

예: 내 그림자 깃발과 함께

Mening bayrog'im bilan birga

너의 정원으로, 돌의 정원으로.

Sening bog'inga tomon, bag'ritosh bog'ga tomon.

-서: 탄원서-ariza, 신청서-talabnoma, ariza 보증서-kafolat hujjati, 증명서 - guvohnoma, 추천서-tavsiyanoma

예: 저기 가서 신청서를 작성해 주세요.

Ana u yerga borib, *talabnomani* to'ldiring.

-기: 세탁기-kir yuvish mashinasi, 사진기-fotoapparat

예: 등산하면 자신과 함께 *사진기*를 가져 가세요.

-고: 냉장-muzxona+ 고= muzlatgich.

예: 우유는 *냉장고* 안에 있습니다.

-수: 냉수-yaxna suv, 향수-atir

예: *냉수*를 많이 마셔서 목이 아팠습니다.

Yaxna suv ko'p ichganimdan tomog'im og'rib qoldi.

-주: 포도주-vino

예: 포도주는 포도로 만들어요.

-권: 복권-lotoreya.

예: 대학교에 입학하는 것은 *복권*처럼 놀이가 아닙니다.

-장: 소환장-chaqiruv hujjati, 초대장-taklifnoma, 소개장-tavsiya maktubi.

-증: 수료증-sertifikat, guvohnoma 학생-talabalik guvonomasi, 영수증-retsept,
자격-vakolat+ 증 =litsenziya

예: 가: 저는 관광 가이드가 되고 싶어요.

-Men gid-tarjimon bo'lishni xohlayman.

나: 그래요? 그럼 *자격증*을 따라해 되요. 9월 시험이 있을 거예요.

-Shundaymi? Unday bo'lsa, litsenziya olishing kerak. Sen-tabrda imtihon bo'ladi.

-사: 축하-tabrik xati.

예: 파루흐 씨는 축하를 받는다

Farrux tabrik xati qabul qildi.

-화: 운동화-sport oyoq buyumi

예: 운동~~화~~를 한 권리 샀어요.

-보: 일보-kundalik

예: 일보를 읽습니다.

Kundalik daftarimni o'qiyapman.

3) o'rin-joy otlari *qayer?* (ba'zan *nima?*) so'rog'iga javob bo'lib, ma'lum bir o'rein yoki joyni ifodalovchi otlarni bildiradi. Qishloq, ko'cha, mehmonxona, uy, qo'riqxonona, maktab v.hk.

O'rin-joy otlari yasovchi qo'shimchalar

-zor: ekinzor, mevazor, o'rikzor, tokzor, olmazor

M: Keng *paxta**zor***, keng diyor.

iston: Pokiston, Dog'iston

M: Hur *gul**iston***, O'zbekiston.

-loq: toshloq, qumloq, o'tloq

M: Buzoqcha *o't**loq***qa qarab chopib ketdi.

-goh: manzilgoh, o'yingoh, sayilgoh

M: *Namoz**goh***dan azon chaqirig'i eshitilmoqda edi.

-xona: oshxona, choyxona, yotoqxona, ishxona, tandirxona, omborxona

M: Mahallamiz markazida keksalar gurunglashadigan kichikkina *choy**xona*** ham bor.

-obod: dehqonobod, yangiobod, husnobod

M: Tumanimizda “*Yangiobod*” mahallasi faoliyat yuritmoqda.

Koreys tilida o'rin-joy otlari yasovchilari

-회: 전시회-ko'rgazmalar zali, 위원회-Mahkama

예: 내일은 *위원회*에 만날 거예요.

Ertaga *Mahkamada* ko'rishamiz.

-소: 사무소-idora, 세탁소-kimyoviy tozalash xonasi

예: 아내는 *사무소*에서 일합니다.

Ayolim *idorada* ishlaydi.

-집: 술집-mayxona

예: 술*집*은 너는 갈 장소가 아닙니다.

Mayxona sen boradigan joy emas.

-관: 경찰관-militsiya punkti, 영화관-kinoteatr, 체육관-sportzall

예: 친구와 함께 *영화관*에 갔습니다.

Do'stim bilan kinoteatrga bordim.

-원: 병원-shifoxona, 수도원-ibodatxona

예: 할머니는 *수도원*에 자주 가셨습니다.

Buvim *ibodatxonaga* tez-tez borib turar edilar.

-국: 약국-dorixona, 방송국-teleradio stansiyasi, 사무국-kotibiyat

예: *약국*에서 알약을 샀습니다.

Dorixonadan dori oldim.

-장: 운동장-sportzall, 냉장-muzxona, 옷장-kiyimlar turadigan xona

예: 운동~~장~~에서 걸어옵니다.

*Sportzall*dan piyoda kelaman.

-과: 치과-stomatologiya, 이비인후과-lor bo'limi, 산부인과-tug'uruqxona, 내과-terapeya

예: 목감기에 걸린 지 1주일이 됐는데 감기가 낫지 않아서 *이비인후*

*과*에 갔다.

Tamog'im shamollab tuzalmayotganimga bir hafta o'tib *lor bo'limiga* bordim.

4) **Mavhum otlar** ong yordamida idrok qilinadigan tushunchalarni ifodalaydi va belgi-xususiyat otlari, munosabat ifodalovchi otlar, harakat-holat otlari, voqea-hodisa otlari, faoliyat ifodalovchi otlar kabi guruhlarga bo'linadi: *qalb, dev, g'azab, holat, hunar, did, hasad, o'kinch, yaxshilik* v.hk.

-lik: ko'ylaklik, tinchlik, onalik, bolalik

M: Bolalik beg'ubor damlardir.

-liq: otaliq,

M: -Nima, men uni otaliqqa olganmanmi!?

-garchilik: namgarchilik, yomg'irgarchilik odamgarchilik, loygarchilik

M: O'tgan yili bahorda namgarchilik ko'p bo'ldi.

Koreys tilida mavhum ot yasovchilari

-력: 영향력-ta'sir kuchi, 저항력-qarshilik kuchi, 상상력-tasavvur kuchi.

예: 탁탁한 물건들에 *저항력*이 전제한다.

Qattiq jismlarda qarshilik kuchi mavjud.

-어치: 값어치-qadr-qimmat

예: 사람의 값어치는 돈으로 평가하 지않는다.

Insonning *qadr-qimmati* pul bilan o'lchanmaydi.

-성: 실용성-amaliylik, 일상성-hayotiylik 이중성-juftlik, 합리성-man-tiqiylik

예: 한글은 일상성과 합리성으로 중요성이 있다.

Koreys alifbosi *hayotiylik* va *mantiqiyliği* bilan ahamiyatlidir.

-업: 농업-dehqonchilik, 공업-ishlab chiqarish sanoati, 광업-madanchilik sanoati, 목축업-chorvachilik sanoati

예: 세종대왕 때는 농업은 크게 발달했는다.

Qirtol Sejon davrida *dehqonchilik sanoati* keng rivojlandi.

-법: 사용법-foydalanish usuli, 인사법-salomlashish usuli

그 약으로 사용법을 써 보십시오.

Bu doridan *foydalanish usulini* yozib oling.

-민: 선민-xalq , 국민-xalq, millat, 도시민-shahar ahli

예: 시는 1980년대 평범한 국민의 일상을 동의 용처로써 그

려낸다. She'rd a 1980-yil oddiy *xalq* hayoti yorqin tasvir-lanilgan

-정: 냉정-sovuqqonlik

예: 아무일을 냉정으로 하 지마세요.

Hech bir ishni *sovuqqonlik* bilan bajarmang.

-권: 발언권-fikr erkinligi

예: 우즈베키스탄 시민들은 *발언권*을 가지고 있다.

O'zbekiston fuqorolari fikr erkinligi huquqiga ega.

-립: 국립-davlat, 독립-mustaqillik.

예: 우리 *국립*은 1991년에 *독립*을 가졌다.

Davlatimiz 1991-yilda *mustaqillikka* erishdi.

-학: 법학-huquqshunoslik, 과학-ilm-fan.

예: 한국에 세종대왕 때는 *과학*은 크게 발달되어 있었다.

Koreyada qirol Sejon davrida *ilm-fan* keng rivoj topgan.

-점: 득점 -ball to'plash o'zagi, manfaat.

-식: 결혼식-to'y

예: 어제는 우리 마을에서 *결혼식*이 되었다.

Kecha mahallamizda *to'y* bo'ldi.

-미: 인간미-odamiylik, 흥미-kayfiyat

예: 재미있는 영화는 즐거운 *흥미*를 줍니다.

Qiziqarli film yaxshi *kayfiyat* baxsh etadi.

2.2 Ot+so'z yasovchi modelli sifatarning yasalishi (명사+ 완료어미 파생형용사)

Predmetning belgisini bildirib, *qanday?*, *qanaqa?* *qaysi?* so'roqlaridan biri-ga javob bo'lgan so'zlar sifat deyiladi: *pakana*, *ko'k*, *kuzgi*. Sifatlarning mor-fologik xususiyatlari: 1) belgining darajasini ko'rsatadi: sho'x, sho'xroq eng sho'x. 2)

otlashadi: *Kattalarni hurmat qiling.* 2) fe'lga bog'lanib, ravish o'rnida keladi: *Sattor chiroyli yozadi.* Sifatning sintaktik xususiyatlari: 1) asosan, aniqlovchi va kesim vazifasini bajaradi: *Yoqimli shamol esa boshladi. Tabiat go'zal(dir).* 2) sifat aniqlovchi bo'lib kelganda, aniqlab ke-layotgan so'zi bilan moslashmaydi: *keng(-) ko'cha, baland(-) tog'.*

Sifatlar o'z o'rnida ma'no guruhlariga ham bo'linadi. Va dastlab:

1.Xususiyat sifatleri. Bunday sifatlar shaxs va predmetlarning xil-xususiyatlarini, holatini ifodalaydi: yaxshi, yomon, aqlli, sergak, xursand, g'amgin, kamtar kabilar. O'zbek tilida ot+so'z yasovchi modelidagi xusu-siyat sifatleri yasalishi quyidagicha;

-li: rasmlı, kuchli, aqlli.

M: Ukam *rasmlı* kitoblarni yoqtiradi.

-siz: aqlsiz, kuchsiz, bilimsiz

M: Bilimli –mingni yiqar,

Bilimsiz –birni.

-iy, -viy: tarbiyaviy, amaliy, devoriy, ommaviy, oilaviy

M: Darakchi *ommaviy* gazeta.

Jamiyatda *oilaviy, mahalliy* munosabatlar keng ahamiyat kasb etadi.

-chan: ishchan, harakatchan, talabchan, uyatchan

M: Nodir *talabchan* o'quvchilarimizdandir.

-dor: guldor, jahldor, vafodor

M: It *vafodor* hayvonligi bilan ahamiyatli.

-kor, -gar: zulmkor, isyonkor, javobgar, ig'vogar

M: O'quvchilarga *javobgar* shaxs menman, albatta.

-i: qishloqi, qozoqi, jannati

M: Rohat xola *jannati* ayollar.

-cha: arabcha, o'zbekcha

M: *Arabcha* raqs qomatni rostlaydi.

-namo: avliyonomo, darveshnamo

M: Mashrab *darveshnamo* g'azalnavisdir.

-parvar: xalqparvar, adolatparvar

M: Sohibqiron Amir Temur adolatparvar siymo.

-aki: og'zaki, qalbaki, yuzaki

M: *Og'zaki* nutqning eng kichik, boshqa bo'laklarga bo'linmaydigan qismi nutq tovushlari deyiladi.

-shumul: olamshumul, jahonshumul

M: Kompyuterning yaratilishi ham *olamshumul* kashfiyot.

-mand: davlatmand, ixlosmand

M: Ilmga *ixlosmand* yoshlar kundan-kunga ortib bormoqda.

-don: gapdon, bilimdon

M: Kelajajimizni har tomonlama *bilimdon* yoshlar yaratadi.

-kash: dilkash, hazilkash, mehnatkash, ig'vokash

M: Shunday qilib, dangasa ham *mehnatkash* insonga aylandi.

-bop: palovbop, ishbop

M: Endi *ishbop* kiyimlar kiyishga odatlaning.

-in: erkin, otashin

M: Difuza unga o'z *erkin* fikrini bildirdi.

-vor: devonavor, jangovor, afsonavor

M: Alpomish xalqimizning *afsonavor* qahramoni.

-parast: mansabparast, maishatparast, manfaatparast

M: Bilingki, *manfaatparast* kimsalar hechqachon obro' qozonolmaydi.

-lik: ko'ylaklik, bolalik

M: Uni ko'rib *bolalik* chog'larim yodimga tushdi.

-chi: gapchi, vahimachi, g'iybatchi

M: Mahallamizda *g'iybatchi* ayollar ham topilib turadi.

-omuz: hazilomuz, zaharomuz

M: Farangizning *zaharomuz* gaplari uning bag'rini teshib ketgan edi.

-xo'r: g'amxo'r, go'shtxo'r

M: Bo'ri *go'shtxo'r* hayvonlar turiga kiradi.

-go'y: qo'shimchasi pand-nasihat aytuvchi kishilarga nisbatan ishlatiladi.

M: Fayzulla ota juda *duogo'y* inson edilar.

-dek, (-day): muzday, chinniday

M: Muzday suv ichib tomog'im og'rib qoldi.

Koreys tilida esa,

-답-: Bu qo'shimcha bilan sifat yasalib, otga bog'langanda padchimdagi 'ㅅ' undan keying bo'g'in boshiga o'tadi va 'ㅇ' ga aylanadi. Undan so'ng esa, 'ㄷ' sifatdoshini olib tuslanadi, ya'ni 다운 holatiga keladi.

정답다-shavqatli, samimiy, 꽃답다-gulday

예: 우리 반 학생들 중에서 파루흐 씨는 정다운 사람입니다.

Guruhimiz talabalari ichida Farrux *samimiyatli* insondir.

-스럽-: Bu qo'shimcha ham -답- kabi otga bog'langanda padchimdagi 'ㅅ' undan keying bo'g'in boshiga o'tadi va 'ㅇ' ga aylanadi. Undan so'ng esa, 'ㄷ' sifatdoshini olib tuslanadi, ya'ni 스러운 holatiga keladi.

창피스럽다-uyatchan, 탐스럽다-tamagir, ochko'z, 사랑스럽다-sevimli, yoqimli

예: 그녀는 매우 사랑스러운 사람입니다.

U juda *yoqimtoy* kishidir.

-하-: bu qo'shimchani olgan yasama sifatdan so'ng sifatdosh 'ㄴ/은/ 는' shakllari qo'shiladi.

조용하다-tinch, 위험하다-xavfli, 중요하다-muhim

예: 김치는 한국인의 중요한 음식입니다.

Kimchi koreyslarning muhim taomidir.

-지-: bu qo'shimchani olgan yasama sifat ot bilan bog'langanda, asosan,

‘-는’ sifatdoshi qo’shiladi. 값지다-qadrli , 그늘지다-soyali, 기름지다-hosildor, unumdor.

예: 기름지는 땅이 보이네요, 과일들은 폭 익었습니다.

Unumdor yer ko’rinadiki, mevalar g’arq pishibdi.

-적: Bu qo’shimchadan yasama sifat yasalib, otga bog’langanda, ‘이다+ㄴ’/ ‘인’ sifatdosh shakli qo’shiladi.

자연적-tabiiy, 평화적-tinchliksevar, 인상적-ta’sirli, 세속적-dunyoviy.

예: 그 약은 자연적인 방법으로 준비 해서 해 없습니다.

Bu dori *tabiiy* vositalardan tayyorlangani sabab zarari yo’q.

-의: Qo’shimchasidan yasalgan sifat to’g’ridan-to’g’ri otga qo’shiladi.

우유의- sutli, 힘의-kuchli, 학문의-ilmiy.

예: 아침식사에 우유의 식품을 먹는다.

Nonushtaga sut mahsulotlari iste’mol qilinadi.

-처럼: o’zbek tiliga -day/dek qo’shimchasi hamda kabi, singari yuklamalariga mos keladi. 꽃처럼-gulday, 아이처럼-boladay, 여자처럼-qizday, qiz kabi

예: 금처럼 단풍은 햇빛에 반짝인다.

Oltinday xazonlar quyosh nurida tovlanmoqda.

-롭-: Bu qo’shimcha ham -롭- kabi otga bog’langanda padchimdagi ‘ㅂ’ undan keying bo’g’in boshiga o’tadi va ‘우’ ga aylanadi. Undan so’ng esa, ‘ㄴ’ sifatdoshini olib tuslanadi.

해롭다-zararli, 지혜롭다-duogo’y, 자유롭다-erkin, ozod.

예: 우리는 자유로운 고향에서 삽니다.

Biz ozod Vatanda istiqomat qilmoqdamiz.

2.Rang-tus sifatlari. Ular narsalarning turli xil rang-tusini ifodalaydi: oq, qora, sariq, kul rang. Bunday sifatlarning so'zlarning juftlashishi yoki takrorlanishidan hosil bo'lishi mumkin. Ola chipor, uzuq-yuluq, yo'l-yo'l.

1-Eslatma. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, *o'zbek va koreys tillarida ot+so'z yasovchi modelidagi derivatlar rang-tus sifatlari guruhida yasaliş xususiyati mavjud emas*

3. Ma'za-ta'm sifatlari. Bu sifatlarning narsalarning maza-ta'mini bildiradi: *shirin, achchiq, nordon, sho'r, achimsiq.*

-li: *mazali, shirali, qiyomli, tuzli, shakarli, asalli, go'shtli, xamirli, yog'li*

M: *Shirali* mevalardan murabbo tayyorladik.

-siz: *tuzsiz, shakarsiz*

M: Do'stsiz boshim,

Tuzsiz—oshim.

Koreys tilida esa,

-있<->없-: bu shakllardan so'ng, '는' sifatdosh shakli qo'shiladi.

맛있다<->맛없다.

예: 응! 조금 **없**는 음식도 있네요?

Iye, *tuzsiz* ovqat ham bo'larkanmi?!

예: 만두는 아주 **맛있**는 음식입니다.

Manti juda *mazaʼli* ovqatdir.

4. Hajm-oʻlchov sifatleri. Bu sifatlar narsalarning hajmini, vaznini, oʻlcho-vini bildirib keladi: *keng, tor, chuqur, katta, kichik, uzun, ogʻir* kabilar. Bun-day sifatlar oʻzbek va koreys tillarida ot+soʻz yasovchi modellilik xusu-siyatiga ega emas.

5.hid sifatleri. Oʻz-oʻzidan maʼlumki, bu sifatlar narsalarning turlicha hidlarini ifodalaydi: *xushboʻy, sassiq, badboʻy, muattar, qoʻlansa.*

-li: iforli, hidli kabi sifatlar yasash mumkin.

Koreys tilida esa,

–롭–: 향기롭다 shakliga mos keladi.

6. Makon –zamon sifatleri. Bular narsalarning oʻrin va paytga nisbatan olingan belgilarini ifodalaydi. Ular oʻzbek tilida -ki va -dagi soʻz yasovchi qoʻshimchalari bilan yasaladi.

2-Eslatma. Oʻzbek va koreys tillarida ot+soʻz modelidagi derivatlar son, olmosh mustaqil soʻz turkumlari hamda makon-zamon sifatleri-da uchramaydi.

2.3. Ot+soʻz yasovchi modelli feʼllarning yasalishi (명사+ 완료어미 파생동사)

Shaxs yoki narsalarning harakat -holatini bildirib, nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqda?, nima qilmoqchi? kabi soʻroqlarning biriga javob boʻladigan soʻzlar feʼl deyiladi. Feʼllardan anglashilgan harakat-holatni amalga oshiradigan shaxs va narsa *harakatning bajaruvchisi* deyiladi.

Fe'llar bo'lishli va bo'lishsiz shakllarga ega, zamon va shaxs-son ifodalay oladi, o'zining vazifadosh xoslangan shakllariga ega, mayl ko'rsata oladi, o'timli o'timsizlik xususiyatiga ega. Fe'llar gapda ko'pincha, kesim vazifasini o'taydi.

Quyidagi qo'shimchalar o'zbek tilida ot so'z turkumidan fe'l yasaydi.

-la: ishlamoq, boshlamoq, yig'lamoq

M: Qizcha onasini ko'rib qolib *yig'lashni boshladi*.

-lan: g'ururlanmoq, faxrlanmoq,

M: Men buyuk Vatanimdan *faxrlanaman*.

-lash: ko'maklashmoq, suhbatlashmoq

M: Farangiz onasiga uy yumushlarida *ko'maklashadi*.

-a: o'ynamoq, oshamoq, sanamoq

Xayrulla o'yinchoqlari bilan *o'ynashdan* bosh ortdi.

-a(y): kuchaymoq

M: Shamol borgan sari *kuchayib* bormoqda.

-sira: qonsiramoq, suvsiramoq

M: Rustamxon *qonsiragan* ko'zlari bilan dushmanga tashlandi.

-sa: suvsamoq

Yomg'ir yog'may qo'yganidan o'simliklar *suvsab*, quriy boshladi.

-ir: gapirmoq

M: Domla ma'ruzada so'z haqida uzoq *gapirdi*.

-i: tinchimoq

M: Bolamni ko'rib ko'nglim *tinchi*di.

Koreys tilida esa ot+so'z yasovchi modelli fe'l so'z turkumidagi derivatlar, asosan, *-ot-*, *-ot-* va shunga o'xshash yordamchi fe'llar bilan birikib hosil bo'ladi. Shuningdek, o'zbek tilidagi ismlar guruhiga kiruvchi so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, undov, taqlid) ga *qil*, *et*, *bo'l* shakllarini qo'shish orqali hosil bo'ladigan yasama fe'llarga aynan mos keladi. Ular o'zak bilan birikib kelib, o'zbek tilida ajratib yoziladi.

qil: tarbiya qilmoq, mehnat qilmoq, tasavvur qilmoq, xayol qilmoq, bino qilmoq, xabar qilmoq, havas qilmoq, hasad qilmoq.

M: *Mehnat qilsang*,

Rohat ko'rasan.

et: ijro etmoq, lutf etmoq, takalluf etmoq, tavsiya etmoq, taklif etmoq, jur'at etmoq,

M: Sizni tug'ilgan kuninmga *taklif et*aman.

bo'l: bino bo'lmoq, janjal bo'lmoq, musobaqa bo'lmoq

M: Bugun institutimizda fakultetlararo sport bo'yicha *musobaqa bo'l*moqda.

koreys tilida esa,

-하- : 방문하다-ziyarat qilmoq, 운동하다-sport bilan shug'ullanmoq, 말하다-gapirmoq, gaplashmoq, 일하다-ishlamoq, 준비하다-tayyorlanmoq, 청구하다-talab qilmoq, 청하다-iltimos qilmoq, 추방-quvg'in+하다=추방하다-quvmoq, 추방되다-quvilmoq, 축복하다-baraka bermoq, 추측하다-taxmin qilmoq, 탐구하다-izlanmoq,

tekshirmoq, 탐험하다-ekspeditsiya qilmoq, 상상하다-tasavvur qilmoq, 여행하다-sayohat qilmoq

M: 파이란 씨, 어디에서 일하~~하~~네요?

Bayram, siz qayerda *ishlaysiz*?

지금은 무엇을 생각해요?

Hozir nimani o'ylayapsiz.

2.4. Ot+so'z yasovchi modeli ravishlarning yasalishi (명사+ 완료어미 파생부사)

Affiksatsiya yo'li bilan ravish yasalishi tilimizda qadimdan mavjud bo'lib, ayniqsa, keyingi vaqtlarda eng unumli usulga aylangan. Ravish yasovchilar ham o'z navbatida unumli va unumsiz affikslarga ajralib turadi: - cha, - larcha, - chasiga, -day unumli yasovchilardir: -ona, - lay, - simon kabilar unumsiz yasovchilardir.

-cha affiksi ot, sifat, olmosh, sifatdosh va ravishlarga qo'shilib ravish yasaydi. Bu affiks yordamida otlardan ravish yasalishi birmuncha rivojlangan bo'lib, qolgan turkumlarda ravish yasalishi ancha chegaralangandir.

-cha yordami bilan yasalgan ravishlar ish - harakatning bajarilish usuli, darajasi, belgining o'xshashligi kabi ma'nolarni bildiradi: o'zbekcha, yigitcha, do'stcha, ruscha, qiyomatcha, askarcha kabi:

M: Qutlug'xon tez orada o'zbekcha biyron - biyron gaplasha boshladi.

-larcha yordamida yasalgan ravishlar ma'no tomonidan -cha orqali yasalgan ravishlarda asosan farq qilmaydi, -larcha affiksi bilan yasalgan ravishda o'xshatish ma'nosi bir oz kuchaygan bo'ladi: mardlarcha - mardcha, do'stlarcha – do'stcha, o'rtoqlarcha, qahramonlarcha, otalarcha.

M: Kimni koyib, kimni *otalarcha* maqtadi.

-chasiga affiksi bilan asosan ot va ba'zan sifatlarda ravish yasaladi. Bu ravishlar ma'no jihatdan harakat belgisining to'liq o'xshashligini bildiradi: harbiychasiga, toshkentchasiga kabi:

M: U *erkak**chasiga*** gapirishni yoqtiradi.

Ravish yasovchi - chasiga va -larcha affikslari tarkib jihatdan murakkab bo'lib, har ikkisini vujudga kelishida -cha ravish yasovchisi ba'zan alohida hisoblanadi. Tilimizning keyingi taraqqiyotida -cha, -larcha, -chasiga affikslari mustaqil yasovchiga aylangan.

-iga// -siga affikslari yordami bilan yasalgan ravishlar ma'no jihatdan harakat belgisining qay tarzda bajarilishini, o'xshashligini bildiradi:

-dek// -day affikslari, ot turkumdagi so'zlarga qo'shilib ravish yasaganda, bu ravishlar ma'no jihatdan taqlidni, o'xshatishni bildiradi: askardek, yashinday, burgutdek, chirmovuqday, o'qdek, qushday, bekorchidek, farqsizdek, toshday, tuxumday, barmoqday, kabi:

M: Chamandek ochilgan paxtazor ko'zni qamashtiradi.

-lab affiksi yordami bilan ot so'z turkumidagi so'zlardan holat, payt va miqdor - daraja ma'nosini bildiradigan ravishlar hosil qilinadi: bo'g'inlab, qoplab, sumkalab kabi: Ta'limning birinchi kunlaridanoq o'quvchilarni harflab emas, bo'g'inlab o'qishga o'rgatish kerak.

Ravish yasovchi -lab ikki qismdan (fe'l yasovchi -la va ravishdoshdosh yasovchi -b dan) tashkil topgan murakkab affiksidir.

-ona affiksi yordami bilan yasalgan ravishlar taqlid va o'xshatish ma'no anglatadi: do'stona, xalqona kabi: U hayajon bilan cholning qo'lini siqdi va qolganlar bilan birodorona xayrlashdi.

-an affiksi arab tilida tushum kelishigi formasi bo'lib, o'sha tildan kirgan so'zlarda ravish yasovchi vazifasini o'taydi. Bu affiks bilan harakatning bajarilish holatini bildirgan ravishlar yasalgan: qisman, haqiqatan, fikran, vijdonan, javoban, ruhan, asosan kabi.

M: Bu tuproqshunos olimlar bilan O'ktam tuman markazida tasodifan uchrashgan edi.

-simon affiksi mavhum ot o'xshatish ma'nosini bildirgan ravishlar yasaydi: hazilsimon, xafasimon, kabi.

M: Yulduzxon arazsimon gapirdi. Tursunoy, bir nafas ashula aytganimizga shunchami?

-lay//-layin affiksi yordami bilan yasalgan ravishlar xarakat belgisini bildiradi: tiriklayin, butunlay, qoqlay, yoshlay kabi: Vaqt butunlay sezilmasdan o'tdi.

-n (-in, -un) affiksi yordami bilan harakatning qay tarzda ba-jarilishini, paytini bildiradigan ravish yasaladi: ertan, kechin, oldin, kechqurun, yozin - qishin, ochin – to'kin, ostin - ustun kabi: Ertan Ismat tomonga bizni boshlab borasan (F. Yo'ldosh). Bu yerlar chorva mollariga yozin - qishin o'tlov.

Koreys tilida yasama ravishlar. (파생 부사)

-로: 진실 →진실로 haqiqat (ot, 명사) → xakikatdan xam (chindan ham)

-히: 영원히 Abad (sifat fe'li, 상태동사→) adabiy

Masalan:

저는 진실로 당신을 믿습니다.

Men chin yurakdan sizga ishonaman.

우리의 만남이 영원히 지속되기를 바랍니다.

Bizning uchrashuvimiz abadiy davom etishini xohlayman

-없이 말없이-so'zsiz, 생각없이-tasavvursiz, 끝없이-to'xtovsiz

예: 아기는 어머니의 돌보기부터 끝없이 울었다.

Bola onasi qaraguncha to'xtovsiz yig'ladi.

III BOB OT+SO'Z YASOVCHI MODELIDAGI DERIVATLARNING SINTAKTIK VAZIFALARI

Gapda biror so'roqqa javob bo'lgan va o'zaro tobe bog'langan so'z yoki so'z birikmasi **gap bo'lagi** deb ataladi. Gap bo'laklarini belgilashda asosiy xususiyat ular orasidagi sintaktik aloqadir. So'zlarga so'roq berish, ularning qaysi turkumga mansubligi, gap ichida joylashish tartibi, qanday qo'shimchalar olishi tom ma'noda gap bo'laklarining turlarini belgilashda asos bo'la olmaydi. Gap bo'laklarining turi odatda bir-biriga nisbatan aniqlanadi: ega kesimga nisbatan, aniqlovchi aniqlanmishga nisbatan, hol hollanmishga nisbatan aniqlanadi. Nisbat beriluvchi bo'lak bo'lmas ekan, u yoki bu gap bo'lagi haqida gapirish mumkin emas. Gap bo'laklari ikki turga bo'linadi: **bosh bo'laklar** va **ikkinchi darajali bo'laklar**.

Ega va kesim gapning bosh bo'laklaridir. Ular o'zaro faqat tobe bog'lanadi. Bosh bo'laklar gapning grammatik asosini tashkil etadi.

Gap bo'laklari tuzilishiga ko'ra ham ikki turga bo'linadi:

1. **Oddiy (sodda) bo'laklar** yakka so'z bilan ifodalanadi (qo'shma, juft so'zlar bilan ifodalansa ham, oddiy bo'lak hisoblanadi: Dars boshlandi).

U sekin javob berdi. Qo'lidagi uzuklar qo'sha-qo'sha.

Murakkab bo'laklar turg'un bog'lamalar (to'g'ri ma'noli va ko'chma ma'noli), erkin bog'lamalar bilan ifodalanga bo'laklardir: *Aravani quruq olib qochish* (nima? turg'un bog'lama) *sizga yarashmaydi*. *Uch og'ayni* (kim? erkin bog'lama) *shirin suhbat qurishyapti*. v.hk.

Koreys tilida gap bo'laklarining tuzilishi o'zbek tili bilan deyarli o'x-shashdir. Ushbu tillarda ega gapning boshida kelishi, undan keyin to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol kelishi umumiy holatdir. Kesim esa har ikki tilda ham gapning oxirida keladi. Koreys tilida gap ega 주어, kesim 서술어, to'ldiruvchi 목적어, aniqlovchi 관형어, hol 부사어 va bog'lama 보어 dan iborat. Bundan tashqari ushbu bo'laklar bilan bog'lanmaydigan, mustaqil gap bo'lagi undalma 독립어 ham mavjuddir. Ega va kesim bosh bo'lak hisoblanib, qolgan bo'laklar esa ikkinchi darajali bo'laklardir.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari bosh bo'laklarga tobe bo'lib, ularni to'ldirib, aniqlab, izohlab keladi. Ikkinchi darajali bo'laklar 3 xil: **to'ldiruvchi** (목적어), **aniqlovchi** (관형어) va **hol** (부사어).

3.1 Ot+so'z yasovchi modelidagi ot so'z turkumli derivatlarning gap bo'lagi bo'lib kelishi.

Keling, endi yuqorida qayd etilgan ot so'z turkumi ma'no guruhlarini sintaktik munosabatlari bilan yaqindan tanishsak. **O'zbek tilida yasama shaxs otlari** sintaktik vazifasiga ko'ra turlanishi.

M: Pochtachi ketishi bilan oqsoqlanib qo'shni kampir kirib keladi.

Ushbu gapdagi yasama shaxs oti ega vazifada qo'llangan. Bundan tashqari shaxs otlari sifatlovchi aniqlovchi vazifasida ham qo'llanilishi mumkin. Bunda shaxs oti sifat so'z turkumiga ko'chadi.

M: Pochtachi kishi uyga oqsoqlanib kirib keldi.

Bu gapda *pochtachi* yasama shaxs otidan so'ng, *kishi* so'zini qo'shganimiz sababli, uning sintaktik vazifasi ham o'zgaryapti. Agar ularni so'z birikmasi nuqta'i-nazaridan oladigan bo'lsak:

M: *pochtachi* kishi

Bunda *pochtachi* sifatlovchi-aniqlovchi bo'lib, u aniqlik kiritayotgan bo'lak ya'ni, *kishi* sifatlanmish sanaladi. Shuningdek, shaxs oti ot-kesim vazifasida ham ishlatiladi.

M: Uyga oqsoqlangancha kirgan kishi *pochtachi*dir.

Bundan ko'rinib turibdiki, yasama shaxs otlari, asosan, *ega* shuningdek, *sifatlovchi-aniqlovchi* va *ot-kesim* vazifasida qo'llaniladi. Shaxs oti yasovchilari to'ldiruvchi vazifasida ham kela oladi.

M: Ana u bola bechora *xizmatchini* rosa do'pposladi.

Kanizak *xazinabonga* tikilib qoldi.

Birinchi gapda yasama shaxs oti **-ni** tushum kelishigini olib, ikkinchi gapda esa, **-ga** jo'nalish kelishiklari bilan turlanib, to'ldiruvchi vazifasini o'tamoqda.

Koreys tilida esa faqat *ega* va *ot-kesim* vazifasida keladi.

예: 그 학생은 아주 똑똑합니다.

Bu *talaba* judayam aqlidir.

Bunda *학생* so'zi *ega* vazifasida kelmoqda.

Agar gapimizga sal o'zgartirish kiritib, quyidagi holatga keltirsak,

예: 안바르 아주 똑똑한 *학생입니다*.

Anvar judayam aqlli talabadir.

Bunda *학생* so'zi *ot-kesim* vazifasini o'taydi.

예: 선생님은 그 학생을 열심히 가르쳐 드립니다.

O'qituvchi bu *talabani* qunt bilan o'qitdi.

예: 맛있는 음식을 만든 요리사에게 정말 감사합니다.

Mazali ovqatni pishirgan *oshpazga* ming tashakkur.

Ushbu gaplarda *학생* hamda *요리사*에게 so'zlari *to'ldiruvchi* vazifasida qo'llangan.

Har ikkala tilda ham bir-biriga moslik mavjud bo'lib, shaxs otlari ega bo'lib kelganda, *bosh kelishik shaklida* turibdi. Kesim bo'lib kelganda esa, otni kesim sifatida shakllantiruvchi *bog'lamalarni* olmoqda.

Yasama narsa-buyum otlari ham shaxs otlari singari ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi vazifasida keladi.

M: *Qalamdon* –qalam, ruchkalar solinadigan idishcha. *Ega vazifasida*. Bolani ko'nglini ovlaydigan narsa *o'yinchoq*dir. *Kesim vazifasida*.

Iltimos, *soyabonni* uzatib yuboring. *To'ldiruvchi vazifasida*.

*Taklifnoma*ning konverti qayerda? *Qaratqich-aniqlovchi vazifasida*.

Koreys tilida ham o'zbek tilidagi singari gap bo'laklari bo'lib kelishi

-자: 그림자-soya, ko'lanka

예: 내 그림자 깃발과 함께

Mening soya bayrog'im bilan birga

너의 정원으로, 돌의 정원으로.

Sening bog'inga tomon, bag'ritosh bog'ga tomon.

Ushbu she'rda 그림자-soya so'zi sifat so'z turkumiga ko'chib sifatlovchi-aniqlovchi vazifasini o'tamoqda. 그림자 깃발 soya bayroq ma'nosini ifodalamoqda (koreys modernizm she'riyatida *maqsad* va *borliq* ma'nosida)

예: 저기 가서 신청서를 작성해 주세요.

Ana u yerga borib, *talabnomani* to'ldiring.

Bunda 신청을-*arizani* so'zi to'ldiruvchi ma'nosida qo'llangan.

예: 취직해서 수료증은 필요합니다.

Bu gapda ega vazifasida ishlatilgan. Shuningdek ot-kesim bo'lib keladi.

예: 포도로 만든 음료수는 포도주라고 합니다.

Ko'makchilar bilan birga qo'llanilib murakkab ot-kesim vazifasida qo'llangan.

Yasama o'rin-joy otlari, asosan, *o'rin holi* vazifasida keladi. Shuningdek, ega va ot-kesim vazifasida ifodalanadi.

Shifoxona shikoyatxonaga aylanib ketdi.

M: Ibodatxonadagi budda haykalchari mudom sokin edi.

Bunda yasama o'rin oti *-dagi* makon-zamon qo'shimchasini olib *sifatlovchi-aniqlovchi* vazifasida qo'llanmoqda.

Ega vazifasini bajarmoqda.

M: Buzoqning qochgani *somonxonagacha*. (*maqol*)

Ot-esim vazifasida kelgan.

M: Buzoqcha *bedapoyaga* yugurib ketdi. *O'rin holi* vazifasida qo'llangan.

Koreys tilida ham xuddi shunday vazifalarda kela oladi.

예: 여기는 치과입니다. *Ot-kesim* vazifasida qo'llangan

Bu yer stomotologiyadir.

예: 술집은 너는 갈 장소가 아닙니다. *Ega* vazifasida qo'llanishi.

Mayxona sen boradigan joy emas.

예: 친구와 함께 영화관에 갔습니다. *O'rin-holi* vazifasida qo'llanishi.

Do'stim bilan *kinoteatr*ga bordim.

Yasama mavhum otlarning sintaktik munosabatga kirishuvi keng qamrovli hisoblanadi.

M: *Bolalik* beg'ubor damlardir.

Ushbu gapda bolalik yasama mavhum oti *ega* vazifada kelgan.

M: –Nima, men uni *otaliqqa* olganmanmi!?

Ushbu gapda *otaliq* so'zi *-qa* jo'nalish kelishigi shaklini olib, to'ldiruvchi vazifasida kelgan va kesimga boshqaruv munosabati bilan tobelangan.

M: Bahorning bir mavsumi *namgarchilikdir*.

Bu gapda *namgarchilikdir* so'zi ot-kesim vazifada kelgan.

M: Bozordan *ko'ylaklik* material oldim.

Bu gapda *ko'ylaklik* so'zi sifatlovchi-aniqlovchi vazifasida kelgan. Shuning-dek material so'ziga bitishuv yo'li bilan bog'lanib, operatorlik vazifasini ohang boshqarmoqda.

Koreys tilida yasama mavhum otlar sintaktik vazifasiga nazar tashlaydigan bo'lsak,

예: 탁탁한 물건들에 저항력이 전제한다.

Qattiq jismlarda *qarshilik kuchi* mavjud.

Ushbu gapda *저항력* so'zi ega vazifasida ifodalanib, kesimga tobe ravishda moslashgan.

예: 사람의 값어치는 돈으로 평가하 지않는다.

Insonning *qadr-qimmat*i pul bilan o'lchanmaydi.

Ushbu gapda *값어치* so'zi ega vazifasida kelgan *사람의* so'zi bilan moslashuvli birkma hosil qilib, qaralmish hokim so'zi bo'lib kelmoqda.

그 약으로 사용법을 써 보십시오.

Bu doridan *foydalanish usuli*ni yozib oling.

Bu gapda *사용법* so'zi *-을* jo'nalish kelishigini olib, *to'ldiruvchi* vazifasida kelgan.

예: 시는 1980년대 평범한 *국민*의 일상을 동의 용처로써 그려낸다.

She'rdan 1980-yil oddiy *xalq* hayoti yorqin tasvirlanilgan.

Ushbu gapda *국민* so'zi *-의* qaratqich kelishigini olib, *qaratqich-aniqlovchi* vazifasida kelgan va *일상* so'zi bilan moslashuvli birikma hosil qilgan.

3.2 Ot+so'z yasovchi modeli sifat so'z turkumidagi leksik derevatlarning gap bo'lagi bo'lib kelishi

Yasama xususiyat sifatleri asosan, sifatlovchi -aniqlovchi vazifasida keladi.

M: Ukam *rasmli* kitoblarni yoqtiradi.

Ushbu gapdagi *rasmli* sifati otga bitishuv yo'li bilan bog'lanib sifatlovchi-aniglovchi vazifasida qo'llangan.

-siz: aqlsiz, kuchsiz, bilimsiz

M: *Bilimli* –mingni yiqar,

Bilimsiz –birni.

Ushbu keltirilgan maqolda *bilimli*, *bilimsiz* so'zlari otlashib ega vazifasida kelyapti va ega kesimga moslashyapti. Shuningdek bunday sifatlar otlashib kelganda otga xos bo'lgan qo'shimchalarni olib turlanadi va u barjaradigan vazifalarda ham qo'llana oladi.

Koreys tilida bu xil sifatlar, asosan, *sifatlovchi-aniglovchi*, *kesim* vazifasida keladi va *tarz holi* bo'lib keladi.

예: 우리 반 학생들 중에서 파루흐 씨는 **정다운** 사람입니다.

Guruhimiz talabalari ichida Farrux *samimiyatli* insondir.

Ushbu gapda *정다운* so'zi *사람* so'ziga bitishuv yo'li bilan bog'lanib, sifatlovchi-aniglovchi vazifasida qo'llangan.

예: 나라마다 사람마다 취미가 **다양하다**.

Har bir davlat har bir odamning hobbiysi turlicha.

Ushbu gapda *다양하다* so'zi fe'l xarakterli bo'lib, murakkab ot-kesim vazifasida kelgan. Shuningdek, yasama sifatlarga –게 ravishdosh qo'shimchasi qo'shilib, tarz holi vazifasida qo'llaniladi.

예: 우즈베키스탄 선민들은 자유롭게 살고 있다.

O'zbekiston fuqorolari *erkin* yashamoqdalar.

Yasama ma'za-ta'm sifatlari sintaktik munosabatga kirishganda, asosan sifatlovchi-aniqlovchi vazifasida, shuningdek kesim ot-kesim vazifasida keladi. M: Do'stsiz boshim –tuzsiz oshim.

Do'stsiz, tuzsiz sifatlari *sifatlovchi-aniqlovchi* vazifasida kelgan.

M: Bu kofe shakarlimi?

Ushbu gapda *shakarli* so'zi gap oxirida qo'llanilib, ot-kesim vazifasida kelyapti. Shuningdek otlashganda ot bajara oladigan vazifalarda ham qo'llanila oldi.

Koreys tilida bu xil silfatlar quyidagich tahlil qilinadi:

Iye, *tuzsiz* ovqat ham bo'larkanmi?!

Ushbu gapda *소금* *없*는 so'zi sifatlovchi-aniqlovchi vazifasida kelib, *음식* so'ziga bitishuv yo'li bilan birikkan.

예: 만두는 아주 맛있구나!

Manti juda mazali ekan.

Ushbu misolda *맛있구나!* Shakli sodda ot-kesim sanaladi. Uning o'zbekcha ekvivalentida esa *mazaliga ekan* to'liqsiz fe'lini qo'shish bilan *murakkab ot-kesim vazifasini o'tamoqda*.

3.3 Ot+so'z yasovchi modeli fe'l so'z turkumidagi leksik derevatlarning gap bo'lagi bo'lib kelishi

Yasama fe'llar gap tarkibida bajaradigan asosiy vazifasi *kesim* bo'lib kelish ekanligi bizga ma'lum. Shu vazifani bajarish uchun fe'l ma'lum bir shakllarga ega bo'lishi lozim. Quyida ularning sintaktik vazifalari bilan tanishaylik.

M: Qizcha onasini ko'rib qolib *yig'lashni boshladi*.

Ushbu gapda ikkita yasama fe'l mavjud bo'lib, *yig'lashni* harakat nomi shakldagi fe'l to'ldiruvchi vazifasida qo'llangan. *Boshladi* fe'li esa fe'l-kesim vazifasida qo'llangan. Bundan kelib chiqadiki, agar fe'l o'zining xoslangan shakllari bilan qo'llangan bo'lsa, o'sha so'z turkumi bajaradigan sintaktik vazifani o'taydi. Jumladan, harakat nomi, asosan, ega, sifatdosh shakli sifatlovchi-aniqlovchi, ravishdosh tarz holi vazifasida keladi.

M: Chekish –sog'liqqa zarar. *Ega* vazifasida.

M: Shamol borgan sari kuchayib bormoqda. Bunda *murakkab fe'l-kesim*.

M: Rustamxon *qonsiragan* ko'zlari bilan dushmanga tashlandi. Ushbu gapda *Sifatlovchi-aniqlovchi*.

M: Yomg'ir yog'may qo'yganidan o'simliklar *suvsab* quriy boshladi. Bu misolda *tarz holi* vazifasida ishlatilgan.

M: *Mehnat qilsang*,

Rohat ko'rasan. Murakkab ot-kesim vazifasida.

Koreys tilida esa,

예: 지금은 무엇을 생각해요?

Hozir nimani *o'ylayapsiz*. *Murakkab ot-kesim* vazifasini o'tamoqda.

3.4 Ot+so'z yasovchi modeli ravish so'z turkumidagi leksik derevatlarning gap bo'lagi bo'lib kelishi

Ko'pincha, fe'l-kesimga bog'lanib, uning belgisini bildirgan bo'lak hol deb ataladi. Gapda ravish so'z turkumi bu doiraga xosdir. M: Yomg'ir to'xtovsiz yog'yapti. Koreys va o'zbek tillarida ot+so'z yasovchi modelidagi leksik ravishlar tarz holi vazifasida keladi va ular qanday? qay holda? Qay

tarda? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Shuningdek, har doim fe'lga bog'lanadi. Tarz hollari ravish, ravishdosh, ot, sifat, olmosh taqlidiy so'zlar ibora bilan ifodalanadi. M: U diqqat bilan tingladi. Ukam chiroyli yozadi. U shoshmasdan jo'nadi. Rais nilan ikkisi do'stlarcha xayrlashti. U qorovul bo'lib turdi. Daraxt barglari duy to'kildi. Buni qanday bazarasiz? Boshini eggan holda kelardi.

Ko'makchilar yordamida shakllangan vositali to'ldiruvchilar bilan xuddi shu ko'rinishda shakllanga vaziyat hollari savollariga qarab farqlanadi: Paxta mashina bilan terildi. (nima bilan? –to'ldiruvchi) Paxta havas bilan terildi. (qanday?) –hol.

Ravishdosh bilan ifodalangan vaziyat holi o'ziga tobe bo'lgan bo'laklar bilan so'z birikmasini hosil qilishi mumkin. M: eshikni sekin ochib, ichkariga qaradi. Bu yoyiq vaziyat holi deb ataladi.

M: U *erkakchasiga* gapirishni yoqtiradi. Har doim *tarz holi* vazifasida keladi.

예: 우리의 만남이 영원히 지속되기를 바랍니다.

Bizning uchrashuvimiz abadiy davom etishini xohlayman

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'zbek tili hamda koreys tili oltoy tillar oilasiga mansub. Ular bir oilaga mansubligi sababli bu ikki til grammatikasida bir qancha o'xshashlik tomonlar mavjud. *Masalan*: O'zbek tilining gap qurilishi rus tili hamda ingliz tili bilan tamoman farq qiladi. Ammo o'zbek tili va Koreys tilining gap qurilishi deyarli bir xil. Shuning uchun ham o'zbek talabalari uchun koreys tilini o'rganish boshqa tillarni o'rganishga qaraganda bir muncha osonroqdir.

O'zbek tili va koreys tilining o'xshashlik tomonlari:

1) Gap qurilishidagi bir xilligi!

예: 저는 시장에 가고 있어요.

Men bozorga boryapman.

새 옷을 사고 싶어요.

Yangi kiyim sotib olishni xoxlayman.

2) Shakl yasovchi qo'shimchalar so'zlarga o'zbek tilidagi kabi so'z oxiriga qo'shiladi.

예: 나는 음식을 먹었습니다.

Men ovqatni yedim.

3) Har ikkala tilda so'z yasovchi qo'shimchalar old va o'zakdan keyin qo'shilishi.

예: 제 딸은 시/집에 갔습니다.

Onam *bamaza* ovqatlar pishiradilar.

우리 아버지는 회사원입니다

Otam firma *ishchisi*.

Va shu kabi boshqa o'xshashlik tomonlarni kuzatishimiz mumkin.

O'zbek tili va koreys tilining farqli tomonlari:

Koreys tili qo'shimchalar guruhida .

선어말 어미 oxirgi qo'shimcha deb nom olgan turi ham mavjud. Ammo o'zbek tili qo'shimchalarini tasnif qilishda biz oxirgi qo'shimcha deb atalgan nomni uchratmaymiz. Koreys tilidagi 선어말 어미 tarkibiga kiruvchi zamon

qo'shimchalari o'zbek tilida shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar tarkibida qolgan qo'shimchalar ham alohida –alohida qilib o'rganiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Shark, 1997.
2. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon xayot - pirovard maqsadimiz. - T.: O'zbekiston, 2000.
3. Karimov I.A. O'zbekiston - iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish yo'lida. -T.: O'zbekiston, 1995

4. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "Bizning yo'limiz - demokratik islohotlarni chuqurlashtirish
5. Н. Не'matov, О. Bozorov. Til va nutq. "o'qituvchi", T., 1993
6. Абдуллаев Ю.Н. Система управления восщей школой в странахс запада. -Т.: Фан, 1997.
7. Hamrayev.M.A. ona tili ma'ruzalar matni Toshkent-2014
8. О'.Hoshimov "Dunyoning ishlari" asari 71-bet.
9. Все о Корее. -Сеул: Королевское азиацкое обхецво, 1980.
11. Kim Mun Uk, Kim Chun Sig. Koreys tili grammatikasi. -T.: ToshDShI nashriyoti, 2007.
12. Kim Mun Uk, A.Ismoilov va boshqalar. Koreys tili grammatikasi va orfoepiyasi. - T., ToshDSHI nashriyoti, 2007.
13. Шоабдурахмонов Ш. ва бошқалар. Ҳозирги замон ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 447 б.
14. Ўзбек тили грамматикаси. II том. – Тошкент: Фан, 1976. – 559 б.
15. Turniyozov N. Nazariy grammatikadan– Samarqand: SamDCHTI, 1998. – 59 b.
16. Turniyozov N. O'zbek tili derevatsion sintaksisi. –Toshkent 2011
17. A. Hojiyev O'zbek tili so'z yasalishi tizimi. –Toshkent 2007
18. Xayrullayev Xurshid Zayniyevich « so'z, so'z birikmasi va gapning predikativlikka munosabati».___Toshkent-2001.
19. F. Abdullayev «Til qanday rivojlanadi?» O'zbekiston Fan nashriyoti- Toshkent- 1972.
20. Sh.Rahmatullayev «Nutqimiz ko'rki» O'zbekiston Fan nashriyoti –Toshkent- 1970
21. 한국어 어휘 연습. – 299 б.

22.“현제시론 “ 저자 일동 2010년 2월 362-페이지.

Foydalanilgan lug‘atlar ro‘yxati.

Koreyscha-o‘zbekcha lug‘at. 30000 도서출판문예림. 2009.

Koreyscha-o‘zbekcha lug‘at. 40000 Kim Chun Sik. Toshkent 2002. . ,

2010김병일,한-우-영 사전 도서출판 퍼내기 2004

최태경, 동아 새국어사전 ,(주)두산동아, 2004

양철우, 국어 실용사전, (주)교학사

Foydalanilgan internet veb sahifalari.

1.Ahmanova O.S.Микаелян Г.Б Современные синтаксический теории. 2003.168с.

2.Береговская Э.М Очерки по экспрессивному синтаксису, -М,2004,208с

3.Почепцов Г.Г Конструктивный анализ структуры предложения. 1447,192с.

Site: WWW. UrSS. ru.

<http://Koreanbooks.Ucoz.ru>.

<http://www.Koreaaward.com>.

[http:// polusharie.com/index. php/topic](http://polusharie.com/index.php/topic).